

PSIXIK RIVOJLANISH VA UNI DAVRLASHTIRISH MUAMMOSI

Almardonova Yulduzzon

Xoliqulova Nilufar

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlangich ta'lim fakulteti 1-bosqich talabalari

Annotatsiya: ushbu maqolada shaxsning psixik rivojlanishi, tarkib topishi va bu haqida psixolog, olimlarning fikrlari, bola aql-idrokining psixologik rivojlanishi, yoshlarni davrlashtirish masalalari va ularning yetakchi faoliyat turi, psixik rivojlanish qonuniyatlarini, psixik rivojlanishning notejisligi yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: rivojlanish, senzitiv davr, pubertat davr, inqiroz, ta'lim, biogenetik ta'limot, sotsiagenetik ta'limot, sensomotor intellekt, faoliyatning yetakchi turi.

Inson shaxsining psixik rivojlanishi va uning shakllanishi murakkab tadqiqot jarayonidir. Zero, uning o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini asosli ilmiy bilish, o'quvchi shaxsiga pedagogik jihatdan ta'sir ko'rsatishning zarur shartidir.

Inson shaxsining tarkib topishi va psixik rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarning muammosi o'z mohiyati jihatidan g'oyaviy xarakterga ega. Shu bois, bu masalani hal qilishda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan turli oqimlar, yo'nalishlar maydonga kelgan. Inson shaxsining tarkib topishini tushuntirishda maydonga kelgan birinchi oqim **biogenetik konsepsiya**, nazariy bo'lsa, ikkinchi oqim **sotsiagenetik konsepsiadir**.

Biogenetik ta'limot, inson qobiliyatlarining rivojlanish darajasi (chunonchi, imkoniyatlarning chegarasi, uning eng yuksak nuqtasi) taqdir tomonidan belgilanib qo'yilganligini, o'quvchi imkoniyatlari va qobiliyatlarini maxsus testlar yordamida aniqlab, undan so'ng ta'lim jarayonini uning irsiyat tomonidan belgilangan taraqqiyot darajasiga moslashtirish, ularning aqliy istedod darajalariga qaraab turli mavqedagi maktablarda tehsil olishi zarur deb ta'kidlashadi. Amerikalik pedagog va psixolog Dj.Dyui-inson tabiatini o'zgartirib bo'lmaydi, odam irsiyat vositasida hosil qilingan ehtiyojlari va psixik xususiyatlari bilan tug'iladi. Bu ehtiyojlar va psixik xususiyatlar tarbiya jarayonida namoyon bo'lib, ba'zida o'zgarish, tarbiyaning esa miqdorini belgilab beruvchi mezondir, deb hisoblaydi. Inson shaxsini tarkib topishini o'rganish davomida yuzaga kelgan yana bir ta'limot-**sotsiogenetik konsepsiya** qobiliyatlarning taraqqiyotini, faqat, tevarak-atrofdagi muhitning

ta'siri bilan tushuntiradi. Bu yo'naliш o'z zamonasi uchun ilg'or hisoblangan XVIII asr fransuz olimi K.Gelvessiy talimotidan boshlangan. K.Gelvessiyning ta'lilotiga ko'ra, barcha odamlar aqliy va axloqiy rivojlanishi uchun tug'ulishidanoq mutlaqo bir xil tabiiy imkoniyatga ega bo'ladilar, shuning uchun odamlarning psixik xususiyatlardagi farq, faqatgina muhit va tarbiyaning turlicha ta'sir qilishi bilan vujudga keladi, deb tushuntiriladi. Bu nazariya odamlarning psixik, ruhiy, oqibatda ijtimoiy tengsizligi ularning tug'ma xususiyatlari degan ta'lilotga qarshi qaratilgan edi. Bu nazariyaning xorijiy mamlakatlardagi hozirgi turli namoyondalaripsixikaning rivojlanishida ijtimoiy muhitning g'oyat darajada muhim roli borligini e'tirof etadilar. Har bir davr o'zining muhim hayotiy sharoitlari, ehtiyojlari va faoliyati, o'ziga xos qarama-qarshiliklari, psixikasining sifat xususiyatlari va psixik jihatdan xarakterli yangi sifatlarning hosil bo'lishi bilan ajralib turadi. Har bir davr o'zidan oldingi davr tomonidan tayyorlanib, uning asosida shakllanishi va o'z navbatida, o'zidan keying davrning paydo bo'lishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shvetsariyalik psixolog J.Piajening aql-idrok nazariyasi, aql-idrok funksiyalari hamda uning davrlari haqidagi ta'lilotni o'z ichiga oladi. Aql-idrokning asosiy vazifalari, moslashish va ko'nikishdan iborat bo'lib, bu uning doimiy vazifalar turkumini tashkil etadi.

Muallif, bola aql-idrokini quyidagi **psixik rivojlanish davrlariga** tasniflaydi:

- 1) Sensomotor intellekti-tug'ilgandan 2 yoshgacha;
- 2) Operatsiyagacha tafakkur davri-2 yoshda 7 yoshgacha;
- 3) Aniq operatsiyalar davri-7, 8 yoshdan=11, 12 yoshgacha;
- 4) Rasmiy operatsiyalar davri.

L.S.Vigotskiy psixologlarning yosh davrlarini quyidagi bosqichlarga ajratadi

1. Chaqaloqlik davri inqirozi.
2. Go'daklik davri – 2 oylikdan 1 yoshgacha. Bir yosh inqirozi.
3. Ilk bolalik davri – 1 yoshdan 3 yoshgacha. 3 yoshdagi inqirozi.
4. Maktabgacha davri – 3 yoshdan 7 yoshgacha. 7 yosh inqirozi.
5. Maktab yoshi davri – 8 yoshdan 12 yoshgacha, 13 yoshdagi inqiroz.
6. Pubertat (jinsiy yetilish) davri – 14 yoshdan 18 yoshgacha, 17 yoshdagi inqiroz.

L.S.Vigotskiy o'zining yosh davrlarini tabaqaлаsh nazariyariyasini ilmiy asoslab, ta'riflab bera olgan. Olim eng muhim psixik yangilanishlar haqida ilmiy va amaliy ahamiyatga molik mulohazalar bildirgan. Biroq, bu mulohazalarda ancha munozarali, bahsli o'rirlar ham mavjud. Umuman L.S.Vigotskiyning yosg davrlarini tabaqaлаsh nazariyasi ilmiy-tarixiy

ahamiyatga ega, uning rivojlanishni amalga oshiruvchi inqirozlar to'g'risidagi mulohazali va olg'a surgan g'oyalari hozirgi kunning talablariga mosdir.

D.B.Elkoninining tasnifi yetakchi faoliyat (A.N.Leontov) nazariyasiga, har qaysi rivojlanish pallasida biror faoliyatning ustunlik qilishi mumkinligiga asoslanadi. Yetakchi faoliyatning inson shaxs sifatida kamol topishidagi roli, nazariyaning asosiy mohiyatini tashkil etadi. D.B.Elkoninining tasnifi yetakchi faoliyat nazariyasiga, har qaysi rivojlanish pallasida faoliyatning biror turi ustunlik qilishi mumkimligiga asoslanadi. Yetakchi faoliyatning inson shaxs sifatida kamol topishidagi roli nazariyaning negizizni tashkil qiladi.

D.B.Elkonin bo'yicha yoshni davrlashtirish

1. Go'daklik 0-1 yosh. Bevosita emotsional muloqot.
2. Ilk bolalik 1 yoshdan 3 yoshgacha. Predmetli faoliyat.
3. Kichik va o'rta maktabgacha yosh davri 3 yoshdan 5 yoshgacha.

O'yin faoliyati.

4. Kata maktabgacha yosh davri 5 yoshdan 7 yoshgacha. Rollisyuetli o'yinlar.
5. Kichik maktab yosh davri 7 yoshdan 11 yoshgacha. O'qish faoliyati.
6. O'smirlilik yosh davri 11 yoshdan 15 yoshgacha. Muloqot.
7. Ilk o'spirinlik davri 15 yoshdan 18 yoshgacha. O'quv-kasbiy faoliyat.

E.G'.G'oziyev bo'yicha:

- 1) Chaqaloqlik va go'daklik davri – tug'ilgandan 1 yoshgacha.
- 2) Ilk bolalik davri – 1-3 yoshgacha.
- 3) Maktabgacha yosh davri – 3-6 yoshgacha.
- 4) Kichik maktab yosh davri – 6-10 yoshgacha.
- 5) O'smirlilik davri – 10-11 yoshdan 14-15 yoshgacha.
- 6) Ilk o'spirinlik davri – 15-18 yoshgacha.
- 7) O'spirinlik davri – 18-22 yoshgacha (talabalik).
- 8) Yoshlik davri – 23-28 yoshgacha .
- 9) Yetuklik davri 1-bosqichi – 28-35 yoshgacha.
- 10) Yetuklik davri 2- bosqichi – 36-55(60) yoshgacha.
- 11) Keksayish davri – 61(56)-74 yoshgacha.
- 12) Keksalik – 75-90 yoshgacha.
- 13) Uzoq umr ko'rvuchilar – 90 dan yuqori.

Z.Freyd bo'yicha psixoseksual rivojlanish bosqichlari

1. Orol bosqich tug'ilgandan 1-1.5 yoshgacha. Bu davrda go'dak og'iz va lab sohalarining stimulyatsiyasidan qoniqish va lazzat oladi.

2. Anal bosqich (1-1.5 yoshdan 3 yoshgacha) chiqaruv funksiyasi orqali qoniqish oladi.

3. Fallik bosqich (3 yoshdan 5-6 yoshgacha) erogen zona genitaliy sohasida joylashgan (Edipov kompleks yoki elektro kompleksi).

4. Latent bosqich (5-6 yoshdan 12 yoshgacha). Bunda jinsiy mayllar ikkinchi darajaga o'tib, o'zini namoyon qilmaydi.

5. Genital bosqich (12 yosh va undan yuqori) jinsiy mayllar pubertat va o'smirlilik davrida yana 1 darajaga o'tadi.

Bir davrdan ikkinchi davrga o'tishda psixologik krizislар ontogenezdagi o'ziga xos davr bo'lib psixologik o'zgarishlarning yuzaga kelishi bilan xarakterlanadi. Krizislarning yuzaga kelishi va davomiyligi individual ravishda bo'ladi. **Rivojlanish** – inson psixikasida son va sifat o'zgarishlarning, yangilanishlarning yuzaga kelishi.

Faoliyatning yetakchi turi – ma'lum yosh davrida bolaning psixikasida, uning psixik xususiyatlari muhim o'zgarishlarni vujudga keltiruvchi faoliyat turidir. Har bir yosh davrida faoliyatning bir turi uchun ehtiyoj seziladi. Masalan: go'daklik davridagi yetakchi faoliyat turi – bevosida **emotsional muloqot** bo'lib, uning asosida orientirovka va sensomotor-monipulyativ harakatlar, ya'ni ko'rish, eshitish, muskul-harakat sezgilar, idrok bilan boshqariladigan harakatlar shakllanadi.

Bu yosh davridagi eng muhim yangilik – boshqa kishilar bilan bo'ladigan muloqotga ehtiyoj va ularga muayyan emotsiyonal munosabatning shakllanishidir. Ilk bolalik davrida faoliyatning yetakchi turi – **predmetli harakatlar**. U orgali bola kattalar bilan hamkorlikda predmetlar bilan bajariladigan harakatlarni o'zlashtiradi. Bu davrdagi yangilik – nutqning rivojlanishi va ko'rgazmali harakatli tafakkurining taraqqiyotidir.

Maktabgacha bo'lgan yosh davrida **rolli o'yinlar** faoliyatning yetakchi turi bo'lib qoladi. Kichik maktab yoshida faoliyatning yetakchi turi – **o'yin faoliyati** hisoblanadi. O'qish faoliyatida xotira shakllanadi, predmetlar va tashqi dunyo haqida bilimlar o'zlashtiriladi.

Psixik rivojlanish qonuniyatları

1.Psixik rivojlanishning notejisligi. Har qanday sharoitda, hatto ta'lim va tarbiyaning eng qulay sharoitlarida ham shaxsning turli psixik belgilari, xususiyatlar va sifatlarning rivojlanishi uchun eng qulay sharoitlar bo'lgan yosh davrlari senzitiv davr deyiladi. (L.S.Vigotskiy, A.N.Leontov). Masalan: 1 yoshdan 5 yoshgacha nutqning rivojlanishi, kichik maktab yoshida o'qituvchining so'zi, 15-20 yosh matematik tafakkur rivojlanishi uchun senzitiv davr hisoblanadi.

2.Psixikaning integratsiyasi qonuni. Inson psixikasi o'z taraqqiyoti davomida tobora ko'proq yaxlitlik, birlik, mustahkamlik va doimiylik xususiyatlarini kasb eta boradi. N.D.Levitovning ko'rsatishicha, kichkina bola psixik jihatdan turli fragmentlar psixik holatning kichik bir sistemaga uyushtirilganidan iboratdir. Psixik rivojlanish psixik holatning asta-sekin o'sib, shaxs xislatlariga aylanishini anglatadi.

3.Plastiklik va kompensatsiya imkoniyati. I.P.Pavlov faqatgina tegishli ta'sir ko'rsatilsa, hamma narsani yaxshi tomonga o'zgartirish mumkinligini ta'kidlab, nerv plastikligini ko'rsatib o'tgan. Ta'lism-tarbiya sharoitida bolaning psixikasini maqsadga muvofiq o'zgartirish imkoniyati nerv sistemasining ana shu plastikligiga asoslanadi. Plastiklik kompensatsiya uchun ham yo'l ochib beradi.

Psixik taraqqiyot va ta'larning o'zaro munosabati

Psixologiya fani zamonaviy ta'lilotga asoslangan holda inson shaxsining tarkib topishini asosan **3 ta** omilning ta'siriga bog'liqligini dalillar asosida izohlab beradi. **-birinchi**-inson tug'ilib voyaga yetadigan tashqi ijtimoiy munitning ta'siri; **-ikkinchisi**-odamga uzoq vaqt davomida muntazam tarzda beriladigan ta'lim va tarbiyaning ta'siri;

-uchinchisi-odamga tug'ma ravishda, tayyorholda beriladigan nasliy xususiyatlarning ta'siridir.

Shaxsning mohiyati o'z tabiatni jihatidan ijtimoiy xarakterga egadir. Shaxsdagi barcha psixik xususiyatlari, ijodiy faolligining rivojlanish manbalari uning tevarak-atrofidagi ijtimoiy muhitda, jamiyatdadir. Inson shaxsi sababiy bog'liqlikda bo'lib, uning ijtimoiy turmushi bilan belgilanadi. Mana shu ma'noda shaxsning taraqqiyoti odamlar bilan munosabatda yuzaga keladigan ijtimoiy tajribani egallash jarayonidan iboratdir. Buning natijasida insonning psixik xususiyatlari, axloqiy fazilatlari, xarakteri, irodaviy sifatlari, qiziqishlari, e'tiqod va dunyoqarashi tarkib topadi. Rivojlanish deganda odatda hodisalarning har ikki turi tushuniladi va bu tushunchalar bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir: 1)miyaning biologik, organik yetilishi, uning anatomik fiziologik tuzilishi jihatidan yrtilishidir; 2) psixik(aqliy) rivojlanishning ma'lum o'sish darajalari sifatidagi, o'ziga xos aqliy yetilish sifatidagi psixik rivojlanishi, o'z-o'zidan ma'lumki, aqliy rivojlanish miya tuzilishining biologik yetilishi bilan bog'liqdir va bu xususiyat ta'lism-tarbiya ishlariда, albatta, hisobga olinishi lozim, chunki ta'lim miyaning organik jihatdan yetilishini inkor qila olmaydi. Biroq miya tuzilishining organik jihatdan yetilishini muhitga, ta'lism-tarbiyaga mutlaqo bog'lanmagan holda o'zining qat'iy biologik qonunlari asosida sodir bo'ladi, deb bo'maydi. Muhit ta'lism-tarbiya va tegishli mashq, miya tuzilishining organik jihatdan yetilishiga yordam beradi.

Psixologlar psixik rivojlanishning umumiyligi qonuniyatlari borligini qatd etib ko'rsatmoqdalar. Biroq muhit ta'siriga nisbatan bu qonuniyatlar ikkilamchidir, chunki bu qonuniyatlarning o'ziga xos xususiyatlari hayot sharoitiga, faoliyatga va tarbiyaga bog'liqdir. Mana shunday umumiyligi qonuniyatlarga birinchi navbatda, **psixik rivojlanishning notejisligi** kiradi. Buning mohiyati shundan iboratki, har qanday sharoitda, hatto ta'limga va tarbiyaning eng qulay sharoitlarida ham shaxsning turli psixik belgilari, funksiyalari va xususiyatlari rivojlanishning bitta darajasida to'xtab turmaydi. bolaning ayrim yosh davrlarida psixikaning u yoki bu yo'naliishlarida rivojlanish chun nihoyatda qulay sharoitlar paydo bo'ladi va bu sharoitlarning ba'zilari vaqtinchalik, o'tkinchi xarakterda bo'ladi. U yoki bu psixik xususiyatlar va sifatlarning rivojlanishi uchun eng qulay sharoitlar bo'lgan ana shunday yosh davrlari **senzitiv davrlar** deb ataladi. (L.S.Vigotskiy, A.N.Leontov). bunday senzitiv davrining mavjudligiga miyaning organik jihatdan yetilish qonuniyati ham, ayrim psixik jarayonlar, xususiyatlar, hayotiy tajriba ham sabab bo'ladi.

Shunday qilib, bolaning, maktab o'quvchisining psixik rivojlanishi – murakkab taraqqiyot jarayonidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Sh.A.Do'stmuhammedova, X.A.Tillashayxeva. "Umumiyligi psixologiya (yosh davrlari va pedagogic psixologiya) . Toshkent-2020;
5. qizi Ashurova, S. F. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARНИ PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK QO 'LLAB-QUVVATLASHDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O 'ZIGA XOS JIHATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(9 SPECIAL), 418-421.
6. Ashurova, S., & Numonova, A. (2023). THE ROLE OF PSYCHOLOGY IN FORMING TEACHERS'PEDAGOGICAL ABILITY. Academia Repository, 2(11), 46-53.
55. Ashurova Sh. F. (2023) SOG`LOM PSIXOLOGIK TURMUSH TARZI TO`G`RISIDAGI TASVVURLARNING SHAKLLANISHI "Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8314/5746>
56. qizi Ashurova, S. F. (2023). OILADA YOSHLARNING SOG 'LOM TURMUSH TARZIGA MUNOSABAT SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI MUAMMO SIFATIDA. Educational Research in Universal Sciences, 2(10 SPECIAL), 32-35.
57. Ashurova Sh.F. .(2022) A HEALTHY LIFESTYLE IN UZBEK FAMILIES FROM THE POINT OF VIEW OF ISLAM RELIGION Emergent: JOURNAL OF

EDUCATIONAL DISCOVERIES AND LIFELONG LEARNING (EJEDL)
<https://ejedl.academiascience.org/index.php/ejedl/article/view/369> (52-56 p)

58. Ashurova, S. F., & qizi Karimova, M. N. (2023). OILADA O 'SMIRLARNING SOG 'LOM TURMUSH TARZI VA OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 363-368.
59. qizi Karimova, M. N., & Ashurova, S. F. (2023). PROFESSIONAL TA'LIMDA TAHSIL OLAYOTGAN QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH VA ULARDA SOG 'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 369-373.
60. Ашурова, Ш. (2023). Оилада эр-хотин муносабатларини мувофиқлаширишнинг ўзбек психололгари томонидан таҳлил қилиниши. Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 67-71.21.
61. Karimova M.N. Ashurova.Sh.F, (2023) Professional ta'limda tahsil olayotgan qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash va ularda sog'lom turmush tarzini shakllantirishning psixologik asoslari. Educational Research in Universal Sciences. OAK. 369-373-b
62. qizi Imonova, MB (2023). MUSIQANING INSON HISSIYOTIGA TASIRI. National Scientific Research International Journal natijalari , 2 (3), 156-161.
63. Иманов, Б., & Имонова, М. (2021). Развитие творческих способностей учеников при выполнении проблемных экспериментов по физике с помощью инновационных технологий. Общество и инновации, 2(2), 222-227.
64. Imonova, M. B. (2023). Oila tinchligi-jamiyat faravonligi asosi. Finland academic research science publisher, 1148-1151.
65. Имонова, М., & Тожиева, Д. (2023). Роль сиблиинговых отношений в когнитивном развитии детей. Традиции и инновации в исследовании и преподавании языков, 1(1), 447-453.
66. Имонова, М. (2023). Musiqiy tarbiya-qudratli quroldir yohud musiqiy tarbiyaning shaxs shakllanishiga tasiri. Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 35-37.
67. Имонова, М., & Таджиева, Д. (2023). Boshlangich sinf oquvchilarida milliy tarbiyani pedagogik va psixologik rivojlanishi qonuniyatlar. Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 74-76.

68. Иманова, М. Б. (2021). ШАХС ХАРАКТЕРИ АКЦЕНТУАЦИЯСИ ВА ДЕСТРУКТИВ ХУЛҚ-АТВОР. Academic research in educational sciences, 2(11), 1399-1403.
69. Imanov, B. (2023). NEGATIVE FACTORS AFFECTING THE QUALITY OF EDUCATION AND WAYS TO ELIMINATE THEM. Science and innovation, 2(B3), 355-358.
70. Имонова, М. Б. (2023). ВАЖНОСТЬ СЕСТРОВЫХ ОТНОШЕНИЙ В ЛИЧНОМ РАЗВИТИИ. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 2(22), 120-123.
71. Imonova, M. B. (2023). Causes of Suicide Tendency in Adolescents. Journal of Discoveries in Applied and Natural Science, 1(1), 62-67.
72. Иманов, Б., & Иманова, М. Б. Қ. (2021). ДАРС ТУЗИЛМАСИ ВА УНГА ТАЙЁРГАРЛИК. Academic research in educational sciences, 2(5), 1158-1162.
73. Имонова, М. Б. (2023). РОЛЬ ОТНОШЕНИЯ СИБЛИНГА В ПРОБУЖДЕНИИ МОТИВОВ ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(10), 101-104.
74. Нематуллаева, С. (2020). Психология детей в возрасте 5-7 лет. Студенческий вестник, (5-1), 62-63.
75. Ne'Matullayeva, S. (2022). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA O 'YIN TERAPIYASINI QO'LLASHGA OID QARASHLAR. Science and innovation, 1(B4), 444-449.
76. Nematullaeva, S. (2023). DEVELOPING COMMUNICATION SKILLS IN PRESCHOOL CHILDREN THROUGH GAME THERAPY. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(4), 86-88.
77. Ne'matullayeva, S. (2022). Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida oyin terapiyasini qo'llashda innovatsion usullar. O 'zbekiston milliy universiteti xabarlari, 1(6).
78. Nematullaeva, S. (2023, April). The role of play therapy in a child's life. In Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education (Vol. 1, No. 1, pp. 9-10).
79. Нематуллаева, С. Х. (2023). Влияние Игровой Терапии В Формировании Личности Детей. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 4(2), 31-33.
80. Kizi, N. S. K. (2022). Use of Game Therapy in Preschool Educational Organizations.
81. Нематуллаева, С. (2023). Maktabgacha yoshdag'i bolalarning shaxs sifatida kamolotida o'yin terapiyasining ahamiyati . Современные

тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 43–46. извлечено от

<https://inlibrary.uz/index.php/psychological-service-education/article/view/23475>